

Journal of Natural Science

*No1 (6)
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А– СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц22. Муминова Н-к.ф.н., доц23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

CHO'L O'SIMLIKLARI . JUZG'UN

Abrorova Kumush –magistranti

Ortiqova Lola-dotsent

Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotasiya: Ushbu maqola O'rta Osiyo hududida keng maydonlarni egallagan cho'l zonalarining o'ziga xos o'simliklari va kengliklari haqidagi keng qamrovli ma'lumotlar bilan tanishtiradi.

Kalit so'zlar: Qumli, Toshloq, Gilli cho'llar; Murg'ob; Sho'rxoklar; Qandim-Calligonium; ko'chma qumlar.

O'rta Osiyo hududining g'arbiy qismi juda katta tekisliklar asosan cho'llardan iborat bo'lib, u yerda qumliklar bilan qoplangan, toshloq (gipsli) unsurdan iborat, gill tuproqqa boy cho'llarni uchratish mumkin. Ko'p yerlarni, ayniqsa, pastroq gilli yerlarni sho'ra o'simliklar o'sadigan sho'rxoklar egallagan.

Qumli cho'llarning maydonlari va unda tarqalgan o'simliklar. O'rta Osiyoda qumli cho'llar o'z navbatida Bo'rsiq cho'llari, Mo'yinqum, Qoraqum, Sariqsuv va Balxashbo'yi qumlariga, Orolbo'yi Qoraqumi, Unguzorti Qora- qumi hamda Qizilqumning katta maydonlariga bo'linib ketadi.

Qumli cho'llarning asosiy ekzotikasini qumda o'suvchi o'simliklar: daraxtsimon o'simliklardan bo'yi 6-7 metrga yetib bora oladigan oq saksovul, Ayniqsa ko'p maydonlarda juzg'un kabi o'simliklar shakllantirib berdi. Buta hayotiy shakliga ega o'simliklardan qum akatsiyasi, chala butalardan shuvoq, pechak va sho'raklar juda ko'p tarqalgan. Bu yerda o'tsimon o'simliklardan asosan iloq, lola, boychechak, gulsapsar, boshoqlilardan esa qo'ng'irbosh, arpag'onlar ko'p uchraydi.

Toshli, ya'ni gipsli cho'llar maydoni unchalik kata hajmga ega emas bo'lib, ularning geografik maydonlari Ustyurt, Qorsoqboy, Betbaqdala, Mang'ishloq, Qoraqum, Qizilqumdagi qoldiq tepalik va past tog' etaklaridagi keng maydonlarni egallagan.

Toshli cho'llarda o'simliklar qoplami siyrak bo'lib, faqat shuvoq, chala buta shaklidagi sho'raklar, tuyatovon, kermak, toshbaqatol, kavrak kabi o'simliklar o'sadi. Shuvoq ayniqsa ko'pchilik joylarda uchraydi.

Sho'rxok cho'l o'simliklari orasidan, asosan, sho'ralarning ba'zi turlarigina o'sadi. Bularga bir yillik sho'rak, qorabargo't, qizil sho'ra, yer bag'irlab o'sadigan chala buta sarisazan, shuningdek, ajriq, qora saksovul, burgan kabilar kiradi.

Lyosli cho'l yoki efemer cho'l maydonlari. Efemer cho'llar joylashan hudud asosan, O'rta Osiyoning qalin soz tuproq (lyoss) qatlamlari mavjud bo'lgan sharqi va janubidagi tog' etaklaridagi tekisliklarda tarqalgan. Ular Mirzacho'lda, Zarafshon vodiysida, Badxiz cho'lida, Kopetdog' oldida, Murg'ob — Amudaryo oralig'ida,

Toshkent yaqinidagi Keles tekisligida, shuningdek, Qashqadaryo hamda Surxondaryoning tog‘oldi hududlaridagi qalin lyosli yerlarda uchraydi.

O‘rta Osiyoning efemer cho‘llarida uchraydigan o‘simliklar orasida rang va qo‘ng‘irbosh boshqalarga qaraganda ko‘p uchraydi. Bu yerda boychechaklar, ayiqtovon, arpag‘on, mortuq, chitir, lolalar va boshqa ba‘zi o‘simliklar o‘sadi.

Cho‘l o‘simliklari orasida ahamiyatli taraflari bilan ajralib turadigan Juzg‘un yoki qandim (*Calligonum*) — torondoshlar oilasining bir turkumi. O‘rta Osiyoda 90 ga yaqin turi bor, asosan, cho‘llarda o‘sadi. Bo‘yi 50 sm dan 3 m gacha. Mevasi quruq, 4—8 qanotchali, changchilari 12—18 ta. Barglari ketma-ket joylashgan, tez to‘kiladi. Shuningdek, bu turdagi o‘simlik ko‘rimsiz hisoblanib, uzunligi 5—7 mm, tasmaimon. Gullari ikki jinsli, oq, mayda, xushbo‘y. Yog‘ochi qattiq. O‘zbekistonda, asosan, Qizilqumda va Markaziy Farg‘ona qumlarida qora juzg‘un (lotincha: *Calligonum aphyllum*), norjuzg‘un (lotincha: *Calligonum eriopodum*), oq juzg‘un (lotincha: *Calligonum junceum*), qizil juzg‘un (lotincha: *Calligonum caput-medusae*) va boshqa turlari o‘sadi. Juzg‘unlar, asosan, ko‘chma qumlarni to‘xtatish uchun ekiladi. Ayrim turlari tarkibida oshlovchi moddalar va alkaloidlar bor. Juzg‘unni mollar yeydi. Manzarali o‘simlik sifatida ham ekiladi. Yonilg‘i-o‘tin sifatida qo‘llaniladi. Juzg‘unlar o‘rtacha 25 yilgacha o‘sadi. Uning urug‘i juda sekin unadi. Aprel—may oylarida gullaydi. Mevasi iyun oyida pishadi.

Qandim o‘simliginnig ajoyib xususiyatlari uni ekib ko‘paytirishimiz uchun asos bo‘la oladi. Bu o‘simlik asosan “ko‘chma qumlarni” mustaxkamlashda hamda oddiy xalq uchun yonilg‘i o‘tin vazifasini o‘tashda juda manfaatlidir. Ayniqsa ushbu o‘simlik mollarning sevib yeydigan ozuqalaridan biridir. Shuning uchun ham bu o‘simlikni Qurib borayotgan “Orol dengizi” atrofiga ekib maxsus qandimzorlar barpo qilinmoqda. Mol uchun ozuqa sanaladigan mana shu o‘simliklar Orolning qurigan tubida ko‘paymoqda.

“Ekilgan maydonlarning bioekologik holatini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan kuzatishlarga asoslanib, chorva mollari uchun yaylov sifatida foydalanish mumkinligini angladik. Hisob-kitoblarga qaraganda, hozirda ekilgan maydonlarda 1 millionga yaqin qorako‘l qo‘ylarini boqish imkoniyati mavjud”, – deydi olim Po‘lat Xalmuratov.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki “Tabiat bizga bergan” ne‘matlari, mo‘jizalarini qadrlasak munosib javob qaytara olsak, nafaqat o‘zimizga balki kelajak avlodning farovon hayotiga ham foyda keltirgan bo‘lamiz. Orolbo‘yi atrofining ifloslanishi va suv sathining kamayishi bizning o‘zimizning aybimizdir. Cho‘l o‘simliklarini asosan Juzg‘unning ushbu sathga ekib ko‘paytirishimiz hozirgi kundagi, asosiy vazifamizdir. Juzg‘unning ham intensiv turlari paydo qilinsa uning urug‘idan sekin ko‘payish muammosi hal bo‘lgan bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Geografiya.uz-osiyo-tabiiy-geografiyasi. Cho'l-osimliklari bo'limi.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. O'rta Osiyo o'simliklari Arxiv.Uz.